AKTYORDA BADIIY DID VA ETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Sherzod Muhammadiyev – *dotsent*
sherzodmuhammadiyev619@mail.com
O‘zDSMI, “Musiqali teatr san’ati” kafedrasi

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ВКЛЮЧ И ЭТИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА АКТЁРА РАЗВИТИЕ

Шерзод Мухаммадиев – *доцент*
ГИИК Уз

ARTISTIC TASTE AND ETHICAL CULTURE IN THE ACTOR DEVELOP

Sherzod Muhammadiyev – *Associate Professor*
UzSIAC

Tayanch so‘zlar: Alisher Navoiy, ma’naviy komillik, ijodkor shaxs, kasbiy badiiy saviya, teatr, donishmandlik, sintez san’at, millat g‘ururi, fikrlar jamlanishi, mahorat, talaba-tomoshabin, yetaklovchi, personaj, pedagogik texnologi.

Rezyume. Alisher Navoiy o‘zining butun umri davomida Insonni, uning eng go‘zal fazilatu xislatlarini o‘ziga xos, betakror bo‘yoqlarda kuyladi. Bugungi avlod tarbiyasida aynan Navoiy asarlariga, ularda ko‘tarilgan fikrlarga tayanib ish ko‘rish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Navoiyni birgina adabiyotchilar emas, barcha sohalarda ta’lim olayotgan talabalar o‘rganishi zarur.Kasb yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim berish barobarida, Navoiyni ham yonma-yon o‘rgatish lozim.

Ключевые слова: Алишер Навои, духовное совершенство, творческая личность, профессиональный художественный уровень, театр, мудрость, искусство синтеза, гордость нации, совокупность мыслей, мастерство, студент-зритель, ведущий, персонаж, педагогический технолог.

Резюме. На протяжении всей своей жизни Алишер Навои воспевал человека, его самые прекрасные качества в своеобразных, неповторимых красках. Мы считаем, что в воспитании сегодняшнего поколения целесообразно опираться именно на произведения Навои и поднятые в них идеи. Необходимо, чтобы Навои изучали не только литераторы, но и студенты, обучающиеся во всех сферах.Наряду с профессиональным образованием, необходимо преподавать Навои параллельно.

Key words: Alisher Navoi, spiritual perfection, creative personality, professional artistic level, theater, wisdom, art of synthesis, pride of the nation, totality of thoughts, mastery, student-spectator, host, character, pedagogical technologist.

Summary. Throughout his entire life, Alisher Navoi glorified Man and his most beautiful qualities in unique, unique colors. We believe that in the upbringing of today's generation, it is appropriate to rely on Navoi's works and the ideas raised in them. Navoi should be studied not only by writers, but also by students studying in all fields. Along with vocational education, Navoi should also be taught side by side.

“San’at inson tafakkurining mahsuli hisoblanar ekan, uning asosiy vazifasi inson ma’naviy ruhiyatiga ta’sir etishdan iborat. Bu esa san’atkorlardan yuksak ma’naviyatni talab qiladi. Har bir san’at bilim yurti oldida talabalar tarbiyasiga qaratilgan ikki muhim vazifa turadi:

1.Talabani ijodkor shaxs sifatida shakllantirish.
2.Talabaning ichki layoqatini yuzaga chiqarish.

Birinchi vazifa: bo‘lajak ijodkorni siyosiy, g‘oyaviy, intizomiy, ma’naviy, mafkuraviy jihatdan tarbiyalash, dunyoqarashini shakllantirish.

Ikkinchi vazifa: professional tarbiya vositalari orqali talaba ongida ijodkor shaxs tuyg‘usini shakllantirish, qobiliyatini ro‘yobga chiqarish”. [1.7] Yuksak ma’naviyatli ijodkor shaxs tarbiyasida, kecha, bugun va bundan keyin ham davom etadigan ma’naviyatimizning yuksalish jarayonida, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida Alisher Navoiyning ijodi, uning umr saboqlari asosida yaratgan hikmatlarining o‘rni beqiyos, deb o‘ylaymiz. Vatanparvar, xalqparvar, tengsiz shoir, olamshumul faylasuf bobokalonimiz kelajakka-avlodlariga ulkan umid bog‘lagan zot edi. Alisher Navoiy o‘zining butun umri davomida Insonni, uning eng go‘zal fazilatu xislatlarini o‘ziga xos, betakror bo‘yoqlarda kuyladi. Bugungi avlod tarbiyasida aynan Navoiy asarlariga, ularda ko‘tarilgan fikrlarga tayanib ish ko‘rish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Navoiyni birgina adabiyotchilar emas, barcha sohalarda ta’lim olayotgan talabalar o‘rganishi zarur.Kasb yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim berish barobarida, Navoiyni ham yonma-yon o‘rgatish lozim. Bu komil inson tarbiyasi yo‘lidagi eng muhim manbaalardan biridir. Navoiyshunos olim Ibrohim Haqqul tili bilan aytganda, “*Navoiyni zo‘rma-zo‘raki o‘rgatish emas, uni o‘rganishni shavqqa*

aylantirish kerak". Chunki uning ijodida olam va odam haqidagi barcha bilimlar jamlangan.Birgina, "Xamsa"asaridagi "Hayrat ul- abror" dostonini olaylik, insonning tug'ilishidan boshlab, to qarilik hassasiga tayangunicha qanday bo'lmog'i lozim, komillikka qay yo'llar bilan erishish mumkin, hammasi mukammal yozib qo'yilgan. Beixtiyor yuqorida misol keltirganimiz, shoir satrlari yodga tushadi:*"Ellikda qilmadi taraqqiy kishi, Oltmishu borcha tanazzul ishi",*- deydi Alisher Navoiy. "Hayrat ul-abror" dostonining har bir bobi bugungi kunimizga aloqador. "Hayrat ul-abror"dan yana bir misol: "*Vaqt juda oz qoldi, yo'l uzunu, may achchig'",*- deydi Navoiy hazratlari. Umrimizning har bir kunini Yaratganning o'zi bir ish uchun belgilab qo'ygan. Demak har bir daqiqaning qadriga yetishimiz kerak. Yana:*"Zafar xudodan bo'lsa ham, harakatni uning mo'tabar sababchilaridan biri deb bilgin",* -deyiladi "Xamsa"da.

"Xamsa"ning ikkinchi dostoni-"Farxod va Shirin" dostonning 29- bobida "Farxod va Shirin"ning biz shu kungacha bilgan syujetiga yetib kelinadi. Demak, turli spektakllar, filmlardan bilganimiz- ushbu dostondagi Farxodning Shirinni ko'zguda ko'rib qolishi voqealarigacha 28ta bob bor ekan. Eng qizig'i, Farxodning boshidan o'tkazgan sarguzashtlari tasviri har qanday zamonaviy sarguzasht filmni ortda qoldirishi shubhasiz. Shoir turkiy tilni yuksaklikka ko'tardi. Istiqlol tufayli O'zbekistonimizda o'zbek tiliga berilayotgan e'tibor har qadamda sezilmoqda. Shuningdek, Alisher Navoiy orzu qilgan turli millat va xalqlarning tillarini o'rganish- Navoiy orzulari amalga oshayotganligining yorqin namunasidir. Navoiy barkamol avlod bir necha tilni bilishi zarurligini uqtirgan:

"Ibriyu yunoniyu suryoni ham,
Hindu agar so'rsa, bilib oni ham".

Demak, ko'p tillilik bugun uchun ham zaruriyat. Bugungi yoshlarning ongiga elsevarlik, do'stlik va birodarlik tushunchalarini singdirishda ham Alisher Navoiyning asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shoir bu tushunchalarni o'z she'rlarida talqin etadi:

"Ko'ngulni olsa malohat bila tafovut yo'q,
Xitoyi o'lsinu yo arman va yo hindu".

Yoshlar tarbiyasiga daxldor shunga o'xshash fikrlarni Alisher Navoiy asarlaridan ko'plab topish va barkamol avlod tarbiyasida bemalol qo'llash mumkin. Chunki Navoiy asarlarida olam va odam taraqqiyotiga aloqador jabhalar cheksiz. Masalan, "Farxod va Shirin " dostonida shoir mehnatni ulug'lashini, mehnatga bo'lgan qiziqishni Farhod obrazi orqali ochib beradi. Shoir Farhodni tog'dan suv chiqarishga qiynalayotgan jafokash insonlarga himmat qo'lini cho'zishini quyidagicha ifodalaydi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketkumdir oxir?!
Temuchidan tilab dam birla qo'ra,
Belig'a bog'labon charmin tamura...

Ko'rinib turibdiki, ulug' shoir Alisher Navoiyning ijodiy merosi bugungi yoshlar, ayniqsa, ijodkor shaxslar tarbiyasida alohida qimmatga ega. San'at tushunchasi haqida, uning mazmun-mohiyati, kishilikning kamolotidagi o'rni haqida, san'atkorning badiiyati shakllanishi omillari, san'atkorning, xususan, aktyorning professional etikasi haqida J.Maxmudov va H.Maxmudovalarning "Aktyorlik mahorati" kitobida shunday fikrlar mavjud: "San'at tushunchasi keng qamrovli bo'lib, inson va jamiyatning rivojlanish va taraqqiyotida o'ta muhim o'rin egallaydi. Bastakor, haykaltarosh, rassom, sozanda, aktyor, rejissyor, raqqos, qo'shiqchilarni- o'zbek tilimizda bir so'z bilan *ziyolilar* deb ataladi. Ziyolining lug'oviy ma'nosi *ziyo-nur* , yorug'lik taratuvchi demakdir. Aktyor ham, nafaqat o'z san'ati bilan, shaklu-shamoyili, muomilasi, xulqu-odobi bilan keng omma o'rtasida ziyo tarqatuvchi hisoblanadi.

"San'at donishmandlik sari qo'yilgan ilk qadam"- degan edi Aristotel. Aktyorlik mahorati yuzasidan o'tkaziladigan imtihon mohiyat jihatidan boshqa yo'ldosh fan uchun ham imtihon hisoblanadi. Chunki talaba badiiy siymo yaratish jarayonida o'z imkoniyatlarini har tomonlama namoyish etadi. O'quv jarayonida talabalar nazariy darslarga jiddiy e'tibor berishi, shubhasiz, mahorat sirlarini o'rgatadigan o'qituvchilarga bog'liqdir. Ular amaliy mashg'ulotlar paytida nazariy bilimlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini talabalar ongiga singdirishlari lozim. Nazariy fanlardan saboq beruvchi o'qituvchilar esa, o'z navbatida, nazariya amaliyot bilan chambarchas bog'liq ekanligini o'z tinglovchilariga yetkazishlari zarur". [2.7]

Ko'p holatlarda aktyorning unga berilgan personaj bilan uning tashqi qiyofasi o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshashlikni ko'ramiz. Ammo ijroda o'sha mutanosiblikni anglolmaymiz. Natijada nomutanosiblikning guvohi bo'lib qolamiz. Sahna aktyordan ijodiy-g'oyaviy fikrni tomoshabinga yetkaza olish uchun nafaqat qobiliyatni, shuning barobarida, ma'naviy, mafkuraviy jihatdan yetuk, har tomonlama professional tayyorgarlik ko'rgan va shakllangan shaxs bo'lishlikni talab etadi. Chunki, aktyor ijodiy- g'oyaviy fikrni o'zining butun borlig'i bilan namoyon etishdan oldin, aynan shu fikr

uning ongida paydo bo‘lishi, tafakkur ko‘zgusidan o‘tishi, so‘ngra siymo qiyofasida namoyon bo‘lishi kerak. Bunday vazifani mufassal ado etish uchun tashqi qiyofaning o‘zi kamlik qiladi. Gamletni o‘ynayotgan aktyor tafakkur va dunyoqarash jihatidan hech bo‘lmasa unga yaqinlashishi zarur. Shundagina uning his – tuyg‘ulari jonli va ishonarli bo‘ladi. Chunki aktyorning o‘zini dardlari bo‘lmasa, ijro etayotgan rolining so‘z va fikrlari ostida hayotiy haqiqat asoslari yotmasa, bunday ijro tomoshabinni o‘z ortidan ergashtira olmaydi. “Tani boshqa-dard bilmas” degan naql bejiz aytilmagan. Yana bir naql bor: “Yaxshini –yomon bo‘libdi, desa ishon, yomonni- yaxshi bo‘libdi, desa ishonma!” Demak, ijobiy xislatda kamol topgan aktyor salbiy xislatli rolni o‘ynashi mumkin. Ammo salbiy xislatlarda shakllangan aktyor ijobiy personajni kerakli darajadagi qahramon rutbasiga olib chiqa olmaydi. “Bo‘lg‘usi aktyorlarga ta’lim berish jarayonida, ikki qutbdan bir- biri tomon intilayotgan amaliy va nazariy bilim beruvchi o‘qituvchilar ijodiy jarayon kechadigan sahna maydonida har ikki bilimning uchrashishi uchun zamin yaratishlari zarurdir. Bo‘lg‘usi aktyorlarning ijodiy izlanishlari jarayonida har bir talaba siyosiy-g‘oyaviy bilimlarni, mustaqillik davrida jamiyat hayotida, insonlar ongida ro‘y berayotgan ruhiy va mafkuraviy o‘zgarishlarni chuqur anglab yetishi, his qilishi muhim ahamiyatga ega”. [3.8] Bu jarayonda bo‘lajak aktyorning badiiy didi, badiiy saviyasi to‘g‘ri shakllanishi katta ahamiyatga ega.

Aktyor etikasi nafaqat kasb sirlarini egallashga, balki, ijodiy jarayonning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishiga ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham teatr san’atida aktyor etikasi ma’lum chegara va qoidalardan tashkil topgan. Har bir aktyor teatrda faoliyat yuritar ekan, teatr jamoasi, tomoshabin, pyesa muallifi, partnyori va nihoyat o‘zi oldidagi ma’suliyatni unutmasligi, his etishi lozim. Teatr san’atining o‘ziga xos tabiati, uning jamoaviy san’at ekanligi aktyor oldiga nafaqat o‘zi va jamoasi, balki umumbashariyat an’anasi bilan bog‘liq yuksak burchni yuklaydi. Bu jarayonda aktyor bir o‘zi hech narsa qila olmasligini, uning to‘laqonli badiiy ijod bilan shug‘ullanishi va ma’lum natijalarga erishishida u ishlayotgan jamoaning muhim o‘rni borligini har doim his qilib turishi, jamoa esa har bir aktyorning kerakli “vint” ekanligini unutmasligi lozim. Shu nuqtai-nazardan ham buyuk darg‘alar yosh aktyorlarni tarbiyalashda etik va estetik madaniyat qarashlariga alohida ahamiyat berganlar. Teatr asari – spektakl shakllanishida juda ko‘plab ijodkorlar ishtirok etishadi. Rassom-ssenografiya bo‘yicha, chiroq ustasi- yoritish moslamalaridan ustalik bilan foydalana olishi, ovoz rejissyori- musiqa va shovqinlarni to‘g‘ri tanlay olishi, kiyimlar bo‘yicha rassom- har bir davr etnografiyasini yaxshi bilishi orqali aktyor va rejissyorlarning eng yaqin ko‘makchisiga aylana olishi zarur. Shuning uchun biz yuqorida sanab o‘tilgan kasb egalarini ham be’malol ijodkorlar sirasiga qo‘shamiz. Agar ana shu ijodkorlar ansamblida birdamlik, bir -birini qo‘llab-quvvatlash, ijodiy ko‘mak berish xislati bo‘lmasa, yaratilayotgan sahna asari “sifatsiz tikilgan kiyim” singari chok-chokidan so‘kilib ketaveradi. Afsuski, ba’zan jamoada faqat o‘z manfaatini ko‘zlab ish tutuvchilar ham uchrab turadi. Bunday insonlar, Stanislavskiy ta’biri bilan aytganda, o‘zidagi san’atni emas, san’atda o‘zini sevadigan “ijodkor”lardir. Bundaylar nafaqat spektaklning to‘laqonli shakllanishiga, balki jamoadagi ishchan va ijodiy kayfiyatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadilar. Aktyor, avvalo komil shaxs bo‘lib yetilishi, intellektual salohiyatli ijodkor bo‘lib shakllanishi zarur. Etik madaniyat talablari har doim davr, zamon, muhit ta’sirida o‘zgarib boradi. Ammo, uning zaminida yotgan asosiy g‘oya, oliy, ezgu maqsad – xalqchillik xislati, badiiy did, badiiy saviya o‘zgarmaydi, aksincha, yanada sayqallanib, rivojlanib boraveradi.

Badiiy did - ijodkorning o‘zini qurshab turgan muhitga nisbatan munosabatlari yig‘indisidir. Bu munosabatlar shaxsiy xususiyatga ega bo‘lib, u tabiat, jamiyat va inson, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy, etik va estetik qarashlardan iboratdir.

Ijodkorning ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashi mavjud davrdagi jamiyatning badiiy saviyasidan ajralmagan holda shakllanadi. Shuning uchun ham “*insoniyat taraqqiyoti davri*”degan ibora ishlatiladi. Badiiy saviya ijodkor yashagan davrda jamiyatda xukm surgan hissiyot va sezgilar: oliyjanoblik va tubanlik, go‘zallik va badhulqlik, fojeaviy va kulgili vaziyatlarning qaysi biri ustivor ekanligiga ham bog‘liqdir. Ijodkorning badiiy saviyasi ham jamiyatda go‘zallik, nafosat, estetik did, ahloq va odob tushunchalarining qay darajada shakllanganiga bog‘liqdir.Shu boisdan ham insonlar ongi, badiiy saviyasiga kuchli ta’sir o‘tkazuvchi teatr san’ati maktabining asosiy va bosh vazifalaridan biri- talaba yoshlarning ma’naviy dunyosini, badiiy saviyasini shakllantirishdan iboratdir. Har bir insonning badiiy saviyasi, axloq-odobi, ma’naviy qiyofasi g‘oyaviy tamoyillardan hosil bo‘ladi. Ammo birgina axloq-odobning o‘zi shaxsning “badiiy saviyasi” yuksakligidan dalolat bermaydi. Ayrim hollarda badiiy saviya ahloq-odob mezonlaridan

ortda qolgan bo‘lishi ham mumkin. Ba’zan teatrshunoslar badiiy asarni a’lo darajada tahlil etganlari holda, shu asarda tasvirlangan qahramonlarning g‘oyaviy saviyasini tahlil etishga ojizlik qiladilar. Goho pyesa bilan dastlabki tanishuv chog‘ida, ijobiy taassurot hosil bo‘lishi mumkin. Lekin uni sahnalashtirish jarayonida asarning g‘oyaviy bo‘shligi ayon bo‘lib, badiiy to‘qimalar chok-chokidan so‘kilib ketadi. Natijada, ijodkorlar shunday bo‘sh asarga qanday qo‘l urganlariga o‘zlari ham hayron bo‘lishadi. Yoki buning aksini ko‘rish mumkin. Dastlabki tanishuvda bo‘sh bo‘lib ko‘ringan pyesa, sahnalashtirish jarayonida ijodiy jamoani o‘z sahnaviyligi bilan maftun etadi va bu asar mavsumning eng yaxshi spektakli sifatida e’tirof etiladi. Bundan chiqadiki, har bir ijodkor badiiy sezgiga ega bo‘lishi kerak. Bu hissiyotlarni tarbiyalash esa o‘ta murakkab jarayon. Demak, badiiy saviya ijodiy, g‘oyaviy dunyoqarash bilan hamohang qadam tashlamog‘i kerak. Buning uchun o‘qish, o‘rganish, mashq qilish va yana o‘qish lozim. “Bo‘lg‘usi aktyorlarda badiiy did va saviyani o‘stirish uchun o‘qituvchilar ixtiyorida rag‘batlantirish hamda tanbeh berish kabi pedagogik vositalar ham mavjud. Har ikkala vosita ham nozik va o‘tkir qurol bo‘lib, ulardan unumli foydalanish o‘qituvchidan sezgirlik, fahm-farosat, ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bu qurollardan o‘z o‘rnida mohirona foydalana olmaslik talabalarni ijodiy nogironlikka olib kelishi mumkin. Misol uchun, “aktyorlik mahorati” mashg‘uloti vaqtida, o‘qituvchi o‘z ustida kam ishlaydigan, ammo tabiatdan qobiliyatli talabaga qarata: “Siz hozir qoyilmaqom qilib o‘ynadingiz”, — deyishi mumkin. Turgan gapki, bunday o‘rinsiz maqtashning talaba uchun foydasidan ko‘ra ziyoni ko‘proq bo‘ladi. Talaba o‘zicha: “Garchand, ishlamagan bo‘lsamda domla mahoratimga tan berdi”,-degan xulosaga kelishi mumkin va yanglish xulosani chiqarib, o‘zi kirib borayotgan bu noto‘g‘ri yo‘ldan ortga qaytmaydi.Teatr san’atidagi eng muhim narsa bu- iqtidor, texnika va layoqatdir, degan tabiiy xulosa talaba uchun dasturulamal bo‘lib qoladi. Agar sahna san’atida o‘z ustida tinimsiz mehnat ko‘nikmasi hosil qilinmasa ijod uchqunlari vaqt o‘tishi bilan so‘nishi muqarrar. Boshqa bir holatda esa, domla talaba ijrosidagi haqiqatnamo arzimagan harakatni ko‘rib, “*hayotiy haqiqatga yaqin*”, deya baholab, qoniqish hosil qilsa, talaba “*sahna haqiqati hayotiy haqiqat bilan bir ekanda*”, degan yanglish xulosa chiqarishi mumkin. Teatr Oliy bilim yurtidagi imtihonlarning birida yuz bergan etyud fikrimizga dalil bo‘lishi mumkin: “N” kurs talabalari quyidagicha etyud namoyish etishdi: Ular yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan imtihondan qutilib qolish uchun betobliklarini bahona qilib, “*tez yordam*” chaqirishadi. Birinchi talaba o‘zining “*betob*” ekanligiga shifokorni ishontiradi. Ikkinchi talaba shifokor tomonidan beriladigan kasallik to‘g‘risidagi ma’lumotnoma qog‘ozini o‘g‘irlaydi va uni o‘zi to‘ldiradi. Ular o‘ylab topgan hiylalaridan xursand bo‘lib, sakrashadi.

Mazkur etyud, hajviy janrda emas, hayotiy haqiqat tarzida talqin etiladi. Mahorat o‘qituvchisi esa, talabalarning yaxshi ijrosini inobatga olib, “ko‘rik imtihoni”ga tavsiya etadi.

Natijada badiiy haqiqat bilan hayotiy haqiqat o‘rtasida tafovut paydo bo‘lgan. Bunday hol, o‘z navbatida, tarbiyada muhim o‘rin tutgan g‘oyaviy dunyoqarash, ma’naviy va mafkuraviy tarbiyaga salbiy ta’sir o‘tkazishini o‘qituvchi inobatga olmagan”. [4] Etyudda talabalar o‘zlari yaratgan ishning g‘oyaviy- badiiy, tarbiyaviy jihatlariga ham jiddiy e’tibor qaratishi kerak. YA’ni, hayotiy haqiqatning badiiylashgan ko‘rinishiga erishish. Talabalar tomonidan bajarilgan har bir ijodiy ishga baho berish vaqtida, ijroda aks ettirilgan voqea mohiyati, uning g‘oyaviy yo‘nalishi, haqiqat mezonlariga munosibligi har tomonlama mushohada qilib ko‘rilgandan keyingina, ijroning jihatlariga baho berish lozim. Toki talaba o‘z ijodiy mehnati samarasiga aslo befarq bo‘lmasin va birinchi navbatda bajarilgan ijodiy ishining badiiy-g‘oyaviy yo‘nalishi, mohiyati, hayotiyligi, so‘ngra to‘ldiruvchi sifatida, uning texnik jihatlari baholanishini muntazam his qilib tursin.

O‘qituvchi talabaning ijodiy ishini tahlil qilar ekan, dastavval uning mazmun mohiyati, “g‘oyaviy talqini”ga asosiy e’tiborni qaratishi zarur. So‘ngra aks ettirilgan voqeaning tashqi ko‘rinishi, shakli, ijro mahorati darajasiga sinchkovlik bilan yondashishi lozim, hatti- harakat jarayonida yo‘l qo‘yilgan har bir kichik nuqson ham uning nazaridan chetda qolmasligi zarur. Kamchiliklar birma- bir ko‘rsatilgach, ularning sabablari aniqlanib, bartaraf etish uchun zarur yo‘l -yo‘riqlar ko‘rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “O'zbeksiton” nashriyoti.
2. J.Maxmudoa, H.Maxmudova-“Aktyorlik mahorati”- Toshkent. nashriyoti
3. K.S.Stanislavkiy Aktyorning o‘z ustida ishlashi. T.3.-M.:- “Исскуство” nashriyoti
4. M.Abdullayeva.”Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati”.- ”Tafakkur qanoti” nashriyoti